




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-AVGUST OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz


2023 -yil yanvar-avgust oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 10546,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 92,4 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 9081,3 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 86,1% ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 7,2 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 16,3 % ga, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 7,8 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 77,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-avgust oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	155895,4	116229,0	-39666,4
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	927,0	674,0	-253,0

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	54,1	43,0	- 11,1


2023- yil yanvar-avgust oylarida



2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9081,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,1 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,04 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali– 52,3 % (63,2 %), o'rta-quyi texnologiyali– 5,2 % (4,6 %) hamda quyi texnologiyalisi – 42,5 % (32,0 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 52,7 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,3 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 19,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,9 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,2 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,0 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 90,6 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,2 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 196,6 % ga), 3,6 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (47,7 %), 224,0 ming tonna portlandsement (15,3 %), 10,3 ming tonna kalava ip (8,6 %), 29,3 ming tonna paxta chigiti (5,1 %), 19,2 ming tonna paxta tolasi (4,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘ati kuzatildi. Shuningdek, 2069,2 ming litr aroq (7,4 %), 39,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (47,8 %) ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	2235,6	2069,2	-166,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	2407,8	3555,6	1147,8
Paxta tolasi, t.	18411,8	19159,9	748,1
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	75446,2	39379,7	-36066,5
Polietilen, ming t.	201,4	179,1	- 22,3
Polipropilen, ming t.	56,5	53,0	-3,5

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-avgust oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 52,1 % ni, fizik hajm indeksi 73,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4730,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 109,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,0 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1632,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 98,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 15,1 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1684,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 123,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 9,4 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 361,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2022-yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 113,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 164,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 92,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 124,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 234,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 147,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-avgust oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 159,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 94,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 55,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 154,3 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 55,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 41,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1241,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,8 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 83,7 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,3 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 45,8 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1707,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati 109,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (204,5 %), Amudaryo (151,1 %), Nukus (129,6 %), Ellikqal'a (121,0 %), Shumanay (114,9 %), Chimboy (116,8 %), Beruniy (112,5 %) hamda Mo'ynoq (110,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtako'pir (44,2 %), To'rtko'l (87,4 %), Taxiatosh (95,2 %) va Bo'zatov (92,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 81,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 18,5 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 65,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 34,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 103,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 148,1 % ni tashkil etdi.

